Аннотация. В статье проанализировано влияние прямых иностранных инвестиций на экономическую устойчивость Хорезмской области за период 2010–2025 годов. Результаты исследования показали, что рост объёма инвестиций способствовал увеличению промышленного производства, экспортного потенциала и уровня благосостояния населения. Установлено, что приток иностранного капитала сыграл важную роль в технологическом обновлении и активизации экономической деятельности. Также обосновано, что улучшение инвестиционного климата расширило возможности регионального развития. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования региональной экономической политики.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, региональная экономика, устойчивость, промышленное развитие, экспорт, Хорезмская область.

KIRISH

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (XTI) milliy va mintaqaviy darajada iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi muhim tashqi manba sifatida keng e'tirof etilgan [1]. Jahon iqtisodiy tizimining globallashuvi sharoitida kapital harakatchanligining ortib borishi nisbatan kam rivojlangan hududlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltirib, ularning rivojlanish sur'atlarini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlar, balki investitsiyalarning sifati, ularning ustuvor tarmoqlarga yo'naltirilishi hamda samarali institutsional muhitning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Ushbu omillarning uyg'unligi mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi 2017-yildan boshlab iqtisodiy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Valyuta liberalizatsiyasi, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda maxsus investitsiya zonalarini tashkil etish mamlakat investitsion muhitining sezilarli darajada



yaxshilanishiga xizmat qildi [22]. Ushbu ijobiy o'zgarishlar respublikaning barcha hududlarida, jumladan, Xorazm viloyatida ham investitsion faollikning oshishiga va yangi iqtisodiy loyihalarning amalga oshirilishiga keng yo'l ochdi.

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, tarixan Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan muhim savdo-iqtisodiy hududlardan biri hisoblanadi. Viloyat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, to'qimachilik sanoati va turizm sohalari an'anaviy ravishda yetakchi o'rin tutadi [23]. So'nggi yillarda xorijiy investitsiyalar oqimining sezilarli darajada ortishi viloyat iqtisodiyotining tarkibiy jihatdan yangilanishiga xizmat qilmoqda. Xususan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida xorijiy ulushning 2010-yillardagi 9,8 foizdan 2025-yilda 67,9 foizga yetishi hududning investitsion jozibadorligi sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi.

Xorijiy investitsiyalarning mintaqa iqtisodiy barqarorligiga ta'siri masalasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar keng qamrovli bo'lsa-da, Markaziy Osiyo hududlari, xususan, alohida viloyatlar kesimida olib borilgan empirik tadqiqotlar yangi ilmiy izlanishlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda [12]. Shu nuqtai nazardan, Xorazm viloyati misolida investitsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilish mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatni nazariy asoslashda J.H. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan EKL (egallik, ichkilashtirish, joylashuv) paradigmasi — "OLI framework" — muhim nazariy asos sifatida keng qo'llaniladi [3]. Ushbu paradigma asosida kompaniyalar xorijiy bozorlarga kirishda uchta asosiy ustunlikning uyg'unligini hisobga oladi: egallik ustunligi (O – Ownership advantages), ichkilashtirish ustunligi (I – Internalization advantages) va joylashuv afzalligi (L – Location advantages). Dunning va Lundan [25] ushbu yondashuvni yanada rivojlantirib, institutsional omillar — huquqiy muhit, korporativ boshqaruv sifati va davlat-xususiy sektor hamkorligi — transmilliy korporatsiyalarning joylashuv qarorlarida muhim rol o'ynashini asoslab berdi.

Qabul qiluvchi mamlakatlar uchun joylashuv afzalliklari — tabiiy resurslar, mehnat resurslari va bozor imkoniyatlari — xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Markusen [11] transmilliy korporatsiyalar nazariyasida bosh kompaniya va xorijiy sho'ba korxonalar o'rtasidagi bilim va texnologiya almashinuvi mexanizmlarini chuqur tahlil qilib, ushbu jarayon mahalliy sanoat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Endogen o'sish nazariyasi doirasida P. Romer [16] xorijiy investitsiyalar orqali texnologiya uzatilishi va bilim tarqalishining iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hissasini asoslab berdi. Uning modeliga ko'ra, xorijiy kompaniyalar olib kirgan yangi bilimlar va boshqaruv tajribasi mahalliy korxonalar faoliyatini yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Helpman [17] esa innovatsion faoliyat, intellektual mulk huquqlari va texnologiya diffuziyasining xalqaro miqyosda tarqalishini tahlil qilib, bu jarayonlarning XTI orqali kuchayishini ko'rsatadi.

Empirik tadqiqotlar ham xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga sezilarli ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Borensztein, De Gregorio va Lee [4] tomonidan 69 mamlakat misolida o'tkazilgan panel tahlil XTI va iqtisodiy o'sish o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda inson kapitalining rivojlanganlik darajasi muhim omil ekanligi ta'kidlanadi. Alfaro va boshqalar [5] esa moliyaviy bozorlarning rivojlanish darajasi investitsiyalar samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynashini asoslab berdi.

De Mello [6] tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalar kapital jamg'arilishi va texnologiya uzatilishi orqali iqtisodiy o'sishga kompleks ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Lipsey [8] esa xorijiy kompaniyalar faoliyatining mahalliy iqtisodiyotga ijobiy "spillover" effektlari orqali ta'sirini ochib berdi, bu esa tarmoqlararo integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ayrim tadqiqotlarda xorijiy investitsiyalar ta'sirining mamlakatlar va sharoitlarga qarab turlicha namoyon bo'lishi qayd etilgan. Carkovic va Levine [7] hamda Nair-Reichert va Weinhold [10] ishlarida XTI samaradorligi iqtisodiy muhit va institutsional sharoitlar bilan chambarchas bog'liqligi ko'rsatildi. Blonigen [15] esa investitsion muhit sifati — huquqiy tizim, tartibga solish darajasi va boshqaruv samaradorligi — xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim omil ekanligini asoslab berdi.

Mintaqaviy darajadagi tadqiqotlar xorijiy investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha turlicha ta'sirini ochib beradi. Moran [20] ishlab chiqarish sektoriga yo'naltirilgan investitsiyalar mahalliy iqtisodiyot bilan yanada chuqur integratsiyalashishini ko'rsatadi. Chakraborty va Basu [18] esa Hindiston misolida uzoq muddatli iqtisodiy o'sishda xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynashini empirik jihatdan tasdiqladi.

Narula va Dunning [9] globallashtirish sharoitida sanoat rivoji transmilliy korporatsiyalar orqali texnologik yangilanish bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Hsiao va Shen [19] esa institutsional sifati va urbanizatsiya darajasi xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida muhimligini empirik jihatdan asoslab berdi.



Markaziy Osiyo va O'zbekiston kontekstida xorijiy investitsiyalarni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar izchil rivojlanib bormoqda. EBRD [13], IMF [12] va ADB [21] hisobotlarida investitsion muhitni yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish hamda tashqi kapitalni samarali jalb etish mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omillar sifatida qayd etiladi.

Lim [14] ta'kidlaganidek, viloyat darajasidagi tadqiqotlar hududiy iqtisodiy jarayonlarni yanada aniqroq yoritish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola Xorazm viloyati misolida xorijiy investitsiyalar dinamikasini chuqur tahlil qilib, mavjud ilmiy adabiyotlarni hududiy darajada boyitishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot Xorazm viloyatining 2010–2025-yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Tahlil jarayonida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, ularning moliyalashtirish manbalari, sanoat ishlab chiqarishi, tashqi savdo ko'rsatkichlari hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot dinamikasi o'rganildi.

Metodologik yondashuv sifatida deskriptiv statistika, trend tahlili va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Bu esa investitsiyalar va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotda xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri ko'p omilli yondashuv asosida baholandi.

Natijalar nazariy qarashlar bilan uyg'un holda talqin qilinib, hududiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi (2010–2025-yillar). Xorazm viloyatida 2010–2025-yillar davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi jadal o'sish sur'atini namoyon etdi. 2010-yilda 416,9 milliard so'mni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2025-yilga kelib 22 621,2 milliard so'mga yetdi. Bu esa 54,3 baravar o'sishni anglatadi [23].

Mazkur o'sish barcha davrlarda bir xil sur'atda kechmagan. Jumladan, 2015-yilda investitsiyalar hajmi 1 531,5 milliard so'mni tashkil etib, nisbatan mo'tadil o'sish kuzatilgan. 2019-yildan boshlab esa investitsion faollik sezilarli darajada jadallashdi.

1-jadvalda investitsiyalarning tanlangan yillar bo'yicha dinamikasi hamda ularning moliyalashtirish manbalari tarkibida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Xorazm viloyatida asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi (2010-2025 yillar)[23]

Yil	Jami investitsiyalar, mird so'm	Xorijiy ulush, foizda	Ekspart, mln AQSH dollar	Import, mln AQSH dollar	Aholi jon boshiga YaHM, ming so'm
2010	416,9	9,8	156,2	53,6	1 826,7
2013	1 256,9	4,8	198,1	100,2	3 484,3
2016	1 560,5	6,8	95,6	121,0	5 867,0
2019	5 032,0	42,5	146,9	410,8	12 026,8
2021	8 292,0	33,5	231,2	286,0	16 192,9
2023	11 666,1	47,4	304,2	576,9	22 945,5
2024	15 624,1	59,1	427,5	525,8	26 633,7
2025	22 621,2	67,9	435,7	438,1	30 713,5


Ushbu davrning eng muhim tarkibiy o'zgarishi investitsiyalar tarkibida xorijiy manbalar ulushining sezilarli darajada oshishi bilan bog'liq. 2010-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi atigi 9,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilga kelib bu ko'rsatkich 4,8 foizga tushgan [23]. Mazkur holat 2013–2016-yillarda ichki sarmoya hajmining nisbatan barqaror o'sishi bilan bir vaqtda kuzatildi. Ya'ni, xorijiy kapital ulushi ushbu davrda mahalliy va davlat manbalari bilan solishtirganda nisbatan past darajada shakllangan.

2017-yildan boshlab O'zbekistonda amalga oshirilgan valyuta erkinlashtirish va investitsion islohotlar siyosatining ijobiy ta'siri tezda sezila boshladi [22]. 2019-yilda xorijiy ulush bir yilning o'zida 42,5 foizga yetdi. Bu esa 2016-yildagi 6,8 foizlik ko'rsatkich bilan solishtirganda mutlaqo yangi bosqichni anglatadi. 2024-yilda xorijiy investitsiyalar ulushi 59,1 foizga, 2025-yil yanvar–dekabr oylarida esa 67,9 foizga yetdi.



Parallel ravishda korxonalar va aholining o'z mablag'lari ulushi 2010-yildagi 63,4 foizdan 2025-yilga kelib 23,6 foizga tushdi. Bu esa investitsiya modelining tarkibiy jihatdan yangilanib, tashqi kapital ishtiroki sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi.

Ushbu o'zgarishlarni yanada chuqurroq tushunish maqsadida 1-rasmda xorijiy investitsiyalarning mintaqa iqtisodiy barqarorligiga ta'sir mexanizmi tasvirlangan. Mazkur mexanizm beshta asosiy yo'nalish — kapital shakllanishi, texnologiya uzatilishi, bandlikning oshishi, eksport salohiyatining kengayishi hamda davlat byudjeti tushumlarining ortishi — orqali namoyon bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Xorijiy investitsiyalarning mintaqa iqtisodiy barqarorligiga ta'sir mexanizmi¹

Mexanizmning asosiy mohiyati shundan iboratki, xorijiy kapital oqimi yagona kanal orqali emas, balki parallel ravishda ishlovchi beshta kanal orqali mintaqa iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Ularning birgalikdagi ta'siri sinergetik xususiyat kasb etadi, ya'ni har bir kanalning alohida ta'siridan ko'ra yuqoriroq umumiy natijani yuzaga keltiradi. Dunning va Lundan [25] OLI paradigmasining yangilangan talqinida institutsional muhitning ushbu sinergetik ta'sirni kuchaytirish yoki zaiflashtirish qobiliyatini alohida ta'kidlaydi.

Xorazm viloyatida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2010-yildan buyon barqaror o'sish tendensiyasini saqlab kelmoqda. 2010-yilda 628,6 milliard so'mni tashkil etgan sanoat hajmi 2024-yilga kelib 28 438,8 milliard so'mga yetdi. 2024-yilda o'sish sur'ati 107,0 foizni tashkil etdi [23]. 2025-yil yanvar–dekabr davrida esa sanoat mahsuloti hajmi 34 276,1 milliard so'mga ko'tarilib, o'sish sur'ati 108,4 foizni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar ulushining keskin oshishi (2019-yilda 42,5 foiz) bilan sanoat o'sish sur'atlarining barqarorlashuvi o'rtasida kuzatiladigan bog'liqlik Romer [16]ning endogen o'sish nazariyasini viloyat darajasida tasdiqlaydi. Narula va Dunning [9] ta'kidlaganidek, sanoat rivojlanishi transmilliy korporatsiyalarning texnologiya va boshqaruv amaliyotlarini uzatishi orqali jadallashadi. Xorazm viloyatida ushbu jarayonning kuzatilishi xorijiy kapital bilan bir qatorda texnologik yangilanishning ham muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 2016-yilda 47,7 foiz bilan eng yuqori darajaga yetdi, so'ngra 2025-yilga kelib 26,6 foizni tashkil etdi [23]. Ushbu holat sanoat tarkibida yirik xorijiy sarmoya jalb etilgan ishlab chiqarish korxonalari ulushining ortishi bilan izohlanadi. Boshqacha aytganda, xorijiy kapital mavjud kichik biznes segmentini cheklab qo'ymadi, aksincha, ular uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratdi.

1 Muallif tomonidan OLI paradigmasi va endogen o'sish nazariyasi asosida tuzildi.



Tashqi savdo aylanmasining o'sishi investitsion faollik bilan chambarchas bog'liq. 2010-yilda 209,8 million AQSh dollarini tashkil etgan Xorazm viloyatining tashqi savdo aylanmasi 2025-yilga kelib 873,8 million AQSh dollariga yetdi. Bu esa 4,2 baravar o'sishni anglatadi [23]. Eksport hajmi 2010-yildagi 156,2 million AQSh dollaridan 2024-yilda 427,5 million AQSh dollariga, 2025-yilda esa 435,7 million AQSh dollariga ko'tarildi.

Muhim sifat o'zgarishi eksport tarkibida kuzatildi. 2013-yilda eksport tarkibida to'qimachilik tolalari ustun bo'lgan bo'lsa (66,0 foiz), 2024–2025-yillarga kelib oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 56,2 foizga yetdi, sanoat tovarlari ulushi esa 23,7 foizni tashkil etdi [23]. Bu eksport tarkibining murakkablashgani va diversifikatsiyalashganidan dalolat beradi hamda Helpman [17] asarlarida tasvirlangan eksport diversifikatsiyasi jarayoniga mos keladi.

Savdo balansi 2014-yildan boshlab manfiy ko'rsatkichga ega bo'ldi. 2019-yilda saldo eng yuqori manfiy qiymatga — minus 263,9 million AQSh dollariga — yetdi. Bu davrda import hajmi keskin oshdi: 2010-yildagi 53,6 million AQSh dollaridan 2019-yilda 410,8 million AQSh dollariga yetdi. Importning bunday jadal o'sishi xorijiy investitsiyalar faolligining kuchayishi, yangi ishlab chiqarish uskunalari, texnologiyalar va zamonaviy jihozlarning olib kirilishi bilan bog'liq.

2025-yilga kelib savdo saldosini minus 2,4 million AQSh dollarigacha qisqardi: eksport 435,7 million AQSh dollarini, import esa 438,1 million AQSh dollarini tashkil etdi [23]. Bu esa viloyat eksport salohiyatining faol rivojlanayotganini va tashqi savdo muvozanati tiklanish bosqichiga kirganini ko'rsatadi.

Moran [20] ta'kidlaganidek, XTI oqimining dastlabki bosqichida qabul qiluvchi iqtisodiyotda import hajmi oshadi, biroq 3–7 yil davomida eksport hajmi ortib, savdo balansi asta-sekin muvozanatlashadi. Xorazm viloyatida ham aynan shu dinamika kuzatildi: 2019–2022-yillar salmoqli manfiy saldo davri bo'lgan bo'lsa, 2023-yildan boshlab muvozanatlashuv tendensiyasi shakllana boshladi.

Investitsion faollikning kuchayishi aholi turmush darajasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi 2010-yildagi 1 826,7 ming so'mdan 2025-yilga kelib 30 713,5 ming so'mga yetdi [23]. Haqiqiy o'sish sur'ati bo'yicha 2019-yilda 105,3 foiz, 2021-yilda esa 108,5 foiz qayd etildi. Bu ko'rsatkich investitsion jarayonlarning aholi farovonligiga bevosita ta'sirini aks ettiradi va Borensztein hamda boshqalar [4] tomonidan asoslangan "XTI – inson kapitali – o'sish" zanjiriga mos keladi.

Urganch va Xiva shaharlarida jon boshiga savdo tovar aylanmasi ham sezilarli darajada oshdi. Masalan, Urganch shahrida ushbu ko'rsatkich 2010-yildagi 3 182,5 ming so'mdan 2025-yilda 31 050,6 ming so'mga yetdi [23]. Bu holat viloyat markazlarida xorijiy sarmoyaning iqtisodiy faollikka ijobiy ta'siri qishloq tumanlariga nisbatan yaqqolroq namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Hsiao va Shen [19] bunday tafovutni urbanizatsiya darajasi bilan bog'liq omillar orqali izohlaydi.

Xorazm viloyatida kichik biznes eksporti 2010-yildagi 13,5 million AQSh dollaridan 2025-yilda 352,1 million AQSh dollariga yetgani [23] mahalliy biznesning xorijiy investitsiyalar muhiti shakllangan hududda eksport yo'nalishida faollashganini ko'rsatadi. Blonigen [15] tadqiqotlarida XTI jalb etilgan mintaqalarda mahalliy kichik firmalar ham eksport faoliyatiga faol qo'shilishi qayd etilgan bo'lib, ushbu qonuniyat Xorazm viloyatida ham kuzatilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada Xorazm viloyati misolida xorijiy investitsiyalarning mintaqa iqtisodiy barqarorligiga ta'siri 2010–2025-yillar kesimida tizimli ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar bir qator muhim ilmiy va amaliy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchi xulosa shundan iboratki, xorijiy investitsiyalar ulushining 2010-yildagi 9,8 foizdan 2025-yilda 67,9 foizga yetishi viloyatda investitsiya modelining sifat jihatidan yangi bosqichga o'tganini ko'rsatadi. Ushbu jarayon 2017–2019-yillarda amalga oshirilgan institutsional islohotlar natijasida investitsion muhitning sezilarli darajada yaxshilangani bilan izohlanadi hamda Dunningning OLI paradigmasida ta'kidlangan joylashuv afzalliklarining amaliy jihatdan faollashganini tasdiqlaydi [3].

Ikkinchi xulosa sifatida xorijiy investitsiyalar oqimining sanoat ishlab chiqarishi, eksport tarkibi va aholi farovonligiga sezilarli ijobiy ta'siri aniqlanganini ta'kidlash mumkin. Xususan, sanoat ishlab chiqarish hajmining keskin ortishi va aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichining barqaror o'sishi investitsion faollikning iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu natijalar de Mello [6] hamda Alfaro va boshqalar [5] tomonidan ilgari surilgan nazariy xulosalar bilan uyg'un holda mintaqaviy darajada ham o'z tasdig'ini topdi.

Uchinchi xulosa tashqi savdo dinamikasining ijobiy transformatsiyasini aks ettiradi. Dastlabki bosqichlarda import hajmining ortishi ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lsa, keyingi davrda eksport hajmining oshishi orqali savdo balansining muvozanatlashuvi kuzatilmoqda. Bu jarayon xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotda bosqichma-bosqich samarali natija berishini va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Mintaqaviy investitsion muhitni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi ustuvor yo'nalishlar taklif etiladi.



Birinchiidan, xorijiy investorlar bilan ishlash samaradorligini oshirish uchun viloyat darajasida ixtisoslashtirilgan investitsiya markazini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu “bir darcha” tamoyili asosida xizmat ko’rsatish tizimini takomillashtirib, investorlar uchun yanada qulay muhit yaratadi [14].

Ikkinchiidan, mahalliy korxonalar va xorijiy investorlar o’rtasida texnologiya uzatish hamda ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytiruvchi dasturlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu bilim va innovatsiyalar tarqalishini jadallashtirib, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi [16].

Uchinchiidan, viloyatning qulay geografik joylashuvidan samarali foydalanib, qo’shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va mintaqaviy eksport platformalarini rivojlantirish muhim yo’nalish hisoblanadi [23]. Bu tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi va eksport diversifikatsiyasini qo’llab-quvvatlaydi.

To’rtinchiidan, hududlararo iqtisodiy faollikni yanada muvozanatli rivojlantirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni viloyatning barcha tumanlariga kengroq yo’naltirish zarur. Bu ichki iqtisodiy uyg’unlikni mustahkamlash va hududlararo rivojlanish darajasini yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Beshinchiidan, mahalliy moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash orqali xorijiy investitsiyalarni samarali o’zlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish muhimdir. Rivojlangan bank tizimi investitsiya oqimlarini real sektorga samarali yo’naltirish imkonini beradi va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

- UNCTAD (2024). World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government. Geneva: United Nations Conference on Trade and Development. <https://unctad.org/wir>
- World Bank (2024). World Development Indicators 2024. Washington D.C.: The World Bank Group. <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>
- Dunning, J.H. (1993). Multinational Enterprises and the Global Economy. Addison-Wesley, Wokingham, England.
- Borensztein, E., De Gregorio, J., & Lee, J.W. (1998). How does foreign direct investment affect economic growth? Journal of International Economics, 45(1), 115-135. [https://doi.org/10.1016/S0022-1996\(97\)00033-0](https://doi.org/10.1016/S0022-1996(97)00033-0)
- Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., & Sayek, S. (2004). FDI and economic growth: the role of local financial markets. Journal of International Economics, 64(1), 89-112. [https://doi.org/10.1016/S0022-1996\(03\)00081-3](https://doi.org/10.1016/S0022-1996(03)00081-3)
- De Mello, L.R. (1999). Foreign direct investment-led growth: evidence from time series and panel data. Oxford Economic Papers, 51(1), 133-151. <https://doi.org/10.1093/oepp/51.1.133>
- Carkovic, M., & Levine, R. (2005). Does foreign direct investment accelerate economic growth? In: Moran, T.H., Graham, E.M., & Blomström, M. (Eds.), Does Foreign Direct Investment Promote Development? Institute for International Economics, Washington D.C. https://www.piie.com/publications/chapters_preview/3810/03iie3810.pdf
- Lipsey, R.E. (2002). Home and host country effects of FDI. NBER Working Paper No. 9293. National Bureau of Economic Research. <https://www.nber.org/papers/w9293>
- Narula, R., & Dunning, J.H. (2000). Industrial development, globalization and multinational enterprises: new realities for developing countries. Oxford Development Studies, 28(2), 141-167. <https://doi.org/10.1080/713688313>
- Nair-Reichert, U., & Weinhold, D. (2001). Causality tests for cross-country panels: a new look at FDI and economic growth in developing countries. Oxford Bulletin of Economics and Statistics, 63(2), 153-171. <https://doi.org/10.1111/1468-0084.00214>
- Markusen, J.R. (2002). Multinational Firms and the Theory of International Trade. MIT Press, Cambridge, MA. <https://mitpress.mit.edu/9780262633079/>
- IMF (2024). Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia — April 2024. Washington D.C.: International Monetary Fund. <https://www.imf.org/en/Publications/REO/MECA>
- EBRD (2023). Transition Report 2023-24: Transitions for Growth. European Bank for Reconstruction and Development, London. <https://www.ebrd.com/transition-report>
- Lim, E.G. (2001). Determinants of, and the relation between, foreign direct investment and growth: a summary of the recent literature. IMF Working Paper WP/01/175. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2001/wp01175.pdf>
- Blonigen, B.A. (2005). A review of the empirical literature on FDI determinants. Atlantic Economic Journal, 33(4), 383-403. <https://doi.org/10.1007/s11293-005-2868-9>
- Romer, P.M. (1990). Endogenous technological change. Journal of Political Economy, 98(5, Part 2), S71-S102. <https://doi.org/10.1086/261725>
- Helpman, E. (1993). Innovation, imitation, and intellectual property rights. Econometrica, 61(6), 1247-1280. <https://doi.org/10.2307/2951642>
- Chakraborty, C., & Basu, P. (2002). Foreign direct investment and growth in India: a cointegration approach. Applied Economics, 34(9), 1061-1073. <https://doi.org/10.1080/00036840110074079>
- Hsiao, C., & Shen, Y. (2003). Foreign direct investment and economic growth: the importance of institutions and urbanization. Economic Development and Cultural Change, 51(4), 883-896. <https://doi.org/10.1086/375711>
- Moran, T.H. (2011). Foreign Direct Investment and Development: Launching a Second Generation of Policy Research. Peterson Institute for International Economics, Washington D.C. <https://www.piie.com/bookstore/foreign-direct-investment-and-development-launching-second-generation-policy-research>
- ADB (2023). Asian Development Outlook 2023: Financing a Green and Inclusive Recovery. Asian Development Bank, Manila. <https://www.adb.org/publications/asian-development-outlook-2023>
- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



23. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi. Xorazm viloyati bo'yicha statistik ma'lumotlar: investitsiyalar, tashqi savdo, sanoat va aholi daromadlari. <https://xorazmstat.uz/uz/>
24. OECD (2023). FDI in Figures — October 2023. OECD Publishing, Paris. <https://www.oecd.org/investment/statistics.htm>
25. Dunning, J.H., & Lundan, S.M. (2008). Multinational Enterprises and the Global Economy (2nd ed.). Edward Elgar Publishing, Cheltenham. <https://www.e-elgar.com/shop/gbp/multinational-enterprises-and-the-global-economy-9781843765967.html>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
